

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:30 (67195)
2018-yil 23-iyul

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Mo'jizaviy manzil taassurotlari



Quyosh bizni qutlaydi shodon,
Boshimizda musaffo osmon!

Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi 15-Mehribonlik uyiga qarashli Bo'stonliq tumani Sijjak qishlog'ida joylashgan «Kamalak» bolalar oromgohida 63 nafar, «Yangi avlod» bolalar oromgohida 51 nafar tarbiyalanuvchilar maroqli dam olib, yoz mavsumini mazmunli o'tkazmoqda.

Mavsum davomida oromgohda tashkil etilgan to'garaklar bolajonlar bilan gavjum. Har bir guruh o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishmoqda. «Ertaklar yaxshilikka yetaklar», «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!», «Balli, qizlar!», «Balli, yigitlar!» hamda «Kim epchil-u kim chaqqon?», «Quvnoq startlar» kabi kechalar va sport musobaqalari, shuningdek, «Jozibador raqslar», «Mohir qo'llar», «G'aroyib biser» ko'rgazmalari tashkillashtirilmoqda.

(Davomi 4-betda)

USHBU SONDA:
SAHRODAN
TARALGAN
ZIYO

2-bet

MUZQAYMOQ
ROHATIYON MI?..


3-bet

«NABIRAMGA
MAKTUBLAR»
TURKUMIDAN

6-bet

Kimki senga harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak haqqin ado bo'lmas aning yuz gang ila.

Tong
yulduzi



SAHRODAN TARALGAN ZIYO

Bugungi kunda Respublikamiz viloyatlarining chekka tumanlaridagi olis ovullarda ham yangi maktab binolarining qad ko'tarib, aholiga xizmat qilishi, maktablarning yangi texnologiyalar bilan ta'minlanishi bizni nihoyatda quvontirmoqda.

«2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ning ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishiga muvofiq, Yurtboshimiz tashabbusi bilan Navoiy viloyatidagi Tomdi tumani Ayaqquduq QFYga tegishli Qulumbet ovulida ham aholining yordamga muhtoj qatlamiga moddiy yordam berilishi, ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida quduq qazilishi, asrlar mobaynida saksovul yoqib kun kechirgan aholining suyultirilgan balonli gaz bilan ta'minlanishi kabi choralarning amalga oshirilishi qalbimizni g'ururlantiradi, albatta. Kelgusi yillarda ovuldan katta yo'lgacha yo'l-transport, telefon antennalari, internetga ulanish muammolarining ham hal bo'lishiga xalqimiz ishonch hosil qila boshladi.

O'qituvchining zahmatli mehnati ko'pincha «Bilimlar bellashuvi», fan olimpiadalarining natijalarida aks sado beradi. 32 yillik pedagogik faoliyatimizda bir necha bor fan olimpiadalarida o'quvchilarimiz ishtirok etdi. To'g'ri, har yili ham bunday tadbirlarning barchasida ishtirok etish imkoni bo'lavermaydi. Chunki tumangacha 130 km trassasiz qora yo'lga maxsus transport yurmaydi. Imkon bo'lganida ishtirok etib, sahrodan ziyo nurini taratib, Qizilqumdan 9 o'quvchinni fan olimpiadasining turli bosqichlarida faxrli o'rinlarni egallashga muvassar bo'lgan kunlarni eslashning o'zi og'ir.

1993-yilda 9–10-sinfdan 2 nafar o'quvchimiz (katta yo'lgacha yuk mashinalarida) qozoq tili fanidan olimpiadaning viloyat bosqichidan 1-o'rinni egallab, respublika bosqichida ishtirok etdi.

2000-yilda olimpiadaning g'oliblarini tumanga olib borish kerak bo'ldi. Yana o'sha transport muammosi... Baxtimizga «Ural» yuk mashinasida ovulga un olib kelindi. Yem-hashak, mol, saksovul yuklangan «Ural»ga xursand bo'lib olimpiadachi bolalarni mindirib, tumanga yetkazdik. Nasibani qarangki, mening o'quvchimiz tuman bosqichida qozoq tili va adabiyoti fanidan 1-o'rinni egalladi. Viloyat bosqichiga ham shu ahvolda amallab ishtirok etib, 1-o'rinni egallab, respublikaga yo'llanma oldik. 5 kun oldin Toshkentga chaqirtirishdi, traktor yollab, kechki soat 17-larda katta yo'lgacha yetib kelsak, Tangrim qo'llab, bitta «Damas» mashinasi Konimexga yo'lovchi qidirib yurgan ekan, qisqasi, kechasi bilan Yangiqo'z'g'on – Konimex – Navoiy yo'llarini bosib o'tib, tungi 23-larda avtobusda Toshkentga yo'l oldik. Shuncha qiyinchiliklarni bosib o'tib, o'quvchimiz 90 ball bilan 2-o'rinni egallagan o'sha lahzalarni haligacha ko'zimda yosh bilan eslayman...

Ota-onalar bolasini tadbirlarga ishtirok ettirishga harakat qiladi. Lekin Mustaqillik tufayli jamiyat rivojlanib, olis ovullarimizga ham «Ford», «Neksiya» kabi yengil mashinalar kela boshlasa-da, lekin ularni yollab borishni (tumanga 400–450 ming so'm) o'quvchilarning iqtisodiy ahvollarini ko'taravermaydi.

Shunday sharoitda «Bilimlar bellashuv»larida, fan olimpiadalarida o'quvchilarimizning yutuqlarga erishishi, o'qituvchilarning qiyinchilik bilan tumanga qatnovi, tadbirlarga ishtirok etishi jasorat, albatta. Ammo aytishga oson... Men yozuvchi yoki shoir emasman, ahvolimizni balki badiiy bo'yoqlarsiz ta'sirli bayonlab bera olmagandirman. Buni faqat tumandan, katta yo'ldan yiroqda, yo'lsiz, transportsiz, telefon antenasiz yashayotgan jasoratli va matonatli insonlardan so'rang...

Sholpan BULEKBAYEVA,
Navoiy viloyati, Tomdi tumanidagi 10-umumta'lim maktabi o'qituvchisi, «Do'stlik» ordeni sohibasi



USTOZ MARTABASI HAMMA DAVRDA YUQORI BO'LGAN

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar keng qamrovli bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchini o'quvchiga ta'lim-tarbiya berishdan ortiq yuklamalardan ozod etish, darsliklarning sifati nazoratini kuchaytirish va shu kabi muhim masalalardan iborat. 17-iyul kuni Prezidentimizning umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishida qator muammolar ko'tarildi.

Mazkur yig'ilishda keyingi yillarda umumta'lim maktablarini zamon talablariga moslashtirish, ularni yaxlit tizimga birlashtirish masalasi chetda qolayotganligi, ushbu tizimga byudjet mablag'lari oxirgi navbatda ajratib kelinganligi, xalq ta'limi xodimlari o'z vazifasidan tashqari boshqa ishlarga muntazam jalb qilinishi oqibatida ta'lim sifati pasayib ketganligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda Xalq ta'limi vazirligi rahbariyatiga ushbu tizimda to'planib qolgan muammolarni hal etish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

Yig'ilishda ko'tarilgan asosiy muammolardan biri maktablarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha bir necha Davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilganiga qaramay, ularning 60 foizi ta'minlab ahvolda qolayotgani, asosiy sabab esa qurilish-ta'mirlash ishlariga «nopok» pudratchilar jalb etilayotganidir. Shu munosabat bilan tegishli mutasaddilarga xalq ta'limi tizimida maxsus injiniring kompaniyasi tashkil etish bo'yicha taklif berish topshirildi. Shuningdek, Prezidentimiz umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

Bunda davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini o'quvchining har bir sinfda qaysi ko'nikmalarga ega bo'lishni inobatga olgan holda, qayta ko'rib chiqish kerakligi, oliy va maktabgacha ta'lim tizimlari bilan uzviylikni ta'minlashga ham e'tibor berish lozimligi, zamonaviy uslublar asosida darsliklar yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, san'at, chet tillari yo'nalishlarini kuchaytirish, ularga taalluqli laboratoriyalarni qayta jihozlash zarurligiga alohida to'xtaldi.

Prezidentimiz ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish, xususan, o'quv jarayonini samarali boshqarish tizimini yo'lga qo'yish uchun o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar va maktablar bo'yicha ma'lumotlar bazalarini yaratish, ularni markazlashtirish, o'quvchilarni birinchi sinfga qabul qilish, maktabdan maktabga ko'chirish va boshqa xizmatlarni elektron shaklga o'tkazish masalalari o'qituvchilarni soatlab hujjat to'ldirish muammolaridan ozod etishi aytib o'tildi.

Hozirda respublikamizda to'qqiz mingdan ortiq maktabda 5,2 million o'quvchi ta'lim oladi. O'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonida 450 mingdan ziyod xodim mehnat qilmoqda. Kelajak yoshlarning qo'lida ekan, ertamiz egalarining jismonan va ma'nan sog'lom voyaga yetishlari uchun bugundanoq qayg'uraylik. Zero, ezgu amal kutilgan samarani, albatta, beradi!

Dilfuza JO'RAYEVA,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabining o'quv va tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

ORZULAR BOLALIK BILAN BIRGA TUG'ILADI


Orzular bolalik bilan birga tug'iladi. Shuning uchun ham ularning tafti yuragimizdan o'chmaydi. Aksincha, vaqt o'tgan sayin go'zallashib, rang oladi. Komila Ergasheva endigina Qibray tuman tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 4-sinfni tugalladi.

– Maktabimiz ajoyib! Men sinfdoshlarim, ustozlarimni judayam yaxshi ko'raman. Tabiiy fanlarni, bundan tashqari, ingliz va rus tillarini chuqur o'rganishga kirishganman, – deydi Komila.

– Men professor bobomga havas qilaman. Ular tuproqshunos olim. Menda ham kimyo va biologiya fanlariga qiziqish katta. Kelajakda shifokor olim bo'lmoqchiman. Bobom asli Surxondaryodan. U joylarga borsak, yayrab ketaman. Keng dala-dashtlar, ochiq osmon, toza havo. Odamlari bir-biridan samimiy, mehnatkash, keng fe'l, bag'ri ochiq...

Komila sportga ham qiziqadi. U tengdoshlari o'rtasida o'tkazilgan karate bo'yicha bellashuvda (2016-yil) g'olib chiqib, diplom bilan taqdirlangan.

Kitoblar esa Komilaning komil do'stlari. Tengdoshingiz yangidan yangi kitoblar bilan do'stlashishga, «Yosh kitobxon» tanlovida qatnashishga ahd qilgan. Biz Komilaning intilishlariga kattadan katta muvaffaqiyatlar tilaymiz.



Oygul SUYUNDIQOVA

MUZQAYMOQ ROHATIYON MI?..

Yozning jazira kunlari muzqaymoqni kim ham sevib iste'mol qilmaydi, deysiz?! Kattalar ham, uka-singillarimiz ham xush ko'ruvchi bu mahsulot nima uchun barchaga birday yoqimli ekanini bilasizmi?



Bu savolni oyimga berganimda, ular quyidagilarni so'zlab berdilar. Odatda, muzqaymoqning tarkibida yog' va uglevodlar, ba'zilarida hatto kalsiy moddasi bo'lar ekan. Birgina uning sutdan tayyorlanishini inobatga olsak, foydali ekanini bilish qiyin emas. Lekin suhbatimizni tinglab turgan buvijonim menga uni ko'p iste'mol qilmaslikni tayinladilar. Chunki bu rohatijon mahsulot tarkibidagi shakar tana vaznining me'yorida oshishiga sababchi bo'lishi mumkin ekan. Shuningdek, qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlarga ham tavsiya qilinmas emish. Biz bolalar ko'pincha rangli muzqaymoqlarga qiziqamiz. Ammo bu shunchaki rang beruvchi modda va qo'shimchalar bo'lishi mumkinligini ham bilib qo'yishimiz kerak. Shuningdek, sotuvchining gigiyenik holatiga hamda mahsulotning sifatiga ham e'tibor berish lozim.

Bu foydali maslahatlarni menga bergan onam va buvijonimga minnatdorchilik bildirgach, ularni sizlarga ham ilindim, aziz tengdoshlar!

Marjona JO'RAQULOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**Quvnoq o'tar har bir dam,
Baxt erur bizga hamdam!**

Yurtboshimizning «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq, To'rtko'l tumanida birin-ketin kitob do'konlari qad rostlayapti. Bu biz to'rtko'lliklar uchun quvunchli voqea.

KITOB DO'KONLARI KO'PAYMOQDA

Ilgari kitob izlab Nukus shahriga borardik. Hozir esa bunday muammo yo'q. Shu bois, bolajonlarning quvunchi cheksiz. Ta'til bo'lishiga qaramay, kitob do'koni yoshlar bilan gavjum.

O'quvchilarimizning mutolaaga bo'lgan qiziqishi kundan kun ortib boryapti.

Hatto 7–10-sinflar o'rtasida o'tkazilgan «Targ'ibotchi kitobxon o'quvchi» tanlovida Feruza Mambetsoliyeva g'olib deb topildi. Bugun esa targ'ibotchi kitobxon qizdan ibrat olib, kitob do'konlaridan qadami uzilmayotgan o'quvchilar talaygina. Aslida, biz ustozlarning maqsadimiz ham, istagimiz ham shu.

Mehribon OLLANAZAROVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 64-DIUMning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

O'QUVCHINING IJODIY G'OYALARI

Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 34-umumta'lim maktabining yosh ijodkor o'quvchilari – Zafarjon Eshqo'ziyev va Bahodir Qurbonovlarni tengdosh do'stlari hurmat bilan tilga oladi.

O'quvchilarning ijodiy g'o'yalari, hamjihatlikda karton va rangli qog'ozlardan yasalgan turli uy maketlari barchaning havasini keltirmoqda.

Bugun maktab o'quvchilarining qiziqishi, qobiliyati va xohish-istaklarini ilg'ay olish hamda ularni rivojlantirishga e'tibor qaratish ta'lim-tarbiyaning tub mazmunini tashkil etadi. Agar Zafarjon va Bahodir o'z ustida tinmay izlansa, ijodiy ishlarini rivojlantirib borsa, ular kelajakda, albatta, yaxshi binokor bo'lib yetishishi, Vatanimizning gullab-yashnashiga o'z hissasini qo'shishi, shubhasiz.

Nasiba HAMZAYEVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 34-umumta'lim maktabining texnologiya fani o'qituvchisi

MUTOLAA ZAVQI

Mutolaa odob-axloqning koni, bilimning bulog'idir. Donolarning bu ibratli o'gitlariga amal qilgan o'quvchilarimiz, maktabimizdagi «Kamalak» sog'lomlashtirish oromgohida tashkil etilgan kutubxonadan turli kitoblar olib mutolaaga astoydil mehr qo'yishyapti, o'z dunyoqarashini, tasavvurlarini boyitishyapti.

Kamoliddin Tursunov hamda Muzaffar Karimov futbol o'ynashni, sport musobaqalarini, rasm chizishni sevgan mashg'ulotiga aylantirgan bo'lsa, Muxlisa Ismoilova, Mubina Murodjonova, Muslima Nortoyeva, Botir Tursunov, Farangiz Umarjomiy kabi o'quvchilarim kitob mutolaasidan zavq olishyapti. Sevimli adibimiz Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev hamda jahon durdona asarlaridan Jonatan Swift, aka-uka Grimmlar asarlarini katta qiziqish bilan o'qib chiqishdi.

Shuningdek, oromgoh rahbari, maktab o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini Nasiba Allolova bilan birgalikda o'quvchilarni tabiat muzeyiga sayohatga olib bordik. Yaqinda «Giyohvandlikka qarshimiz» shiori ostida asfaltga rasm chizish musobaqasi o'tkazildi. Oromgohga qatnaydigan bolalarning aksariyati shaxmat-shashka, gimnastika, raqs to'garaklarida judayam faol qatnashyapti. O'quvchilarimizning yozgi ta'til kunlari ko'ngilli o'tishi uchun oromgohda barcha sharoitlar yaratilgan.

Gulida MAVLONOVA,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 326-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOLALIK

O'tdi bolalik,
Ketdi bolalik.
Qalbinga sog'inch,
Tutdi bolalik.

Tushga aylanar,
Ko'zlarim yumsam.
Jilmayib boqar,
Xayollar sursam.



Bilmayin qoldim,
Nega tark etding?!
Shodon sho'xligim,
O'g'irlab ketding.

Ortga qaytolsam,
So'zim aytolsam.
Qaniydi bir on,
Bag'ringda qolsam.

Sen ketding lekin,
Suvrating qoldi.
Qalbimda mahzun,
Siyrating qoldi.

Rustambek TUROPOV

YOZ – O'TMOQDA SOZI!

Yozgi ta'til davrida bolajonlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida ham «Yulduzcha» nomli oromgoh tashkil etilgan. Har kuni shaxmat, shashka, futbol, stol tennisi singari sport to'garaklari faoliyat ko'rsatib, unda Sanjar Jo'rayev hamda Bunyod Mahamatov kabi fidoyi ustozlar bolajonlarga ushbu sport turlarining sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqdalar.

Yaqinda «Yulduzcha» oromgohida «Quvnoq startlar» sport musobaqasi o'tkazildi. Unda tumandagi 8 ta oromgoh tarbiyalanuvchilari estafeta, arqon tortish, stol tennisi hamda shashka yo'nalishi bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar. Mazkur musobaqa katta tantanaga aylanib ketdi. Unga tashrif buyurgan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Yunusobod tuman bo'limi xodimi Alisher Mahkamov, «Nuroni» jamg'armasi respublika boshqaruvi huzuridagi «Yoshlar bilan ishlash guruhi» vakillari, «Milliy tiklanish», «Adolat» sotsial-demokratik partiyalari vakillari, tumandagi 21-madaniyat va aholi dam olish markazi rahbari Lola Alimjanova, «Oqtepa» MFY faollari bolajonlarning jismonan sog'lom, epchil, chaqqonliklaridan xursand bo'lishdi. «Nastarin» estrada ansambli a'zolari hamda xonanda Rinat Sobirovning yoqimli kuy-qo'shiqlari yig'ilganlarga manzur bo'ldi.

Musobaqada 1-o'rinni 274-umumta'lim maktabining «Yulduzcha» jamoasi qo'lga kiritdi. 2-o'rinni 288-umumta'lim maktabining «Kamalak», 3-o'rinni 150-umumta'lim maktabining «Of-toboy» jamoasiga nasib etdi. G'olib guruh va bolajonlar diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Shuningdek, «Til o'rgatamiz va bahslashamiz» tadbirida oromgohdagi «Quyoshcha», «Binafsha», «Kamalak», «Bo'g'irsoqlar» guruhlari dam oluvchilarining o'zbek,

namunalar yod olindi, Xudoyberdi To'xtaboyev asarlaridan sahna ko'rinishlari ijro etildi. Zero, kitob o'qish mashg'ulotlar orasida eng maroqli hisoblanadi.



rus, ingliz tilida aytgan she'rlari, «Sholg'om» ertagidan tayyorlagan sahna ko'rinishi barchaga manzur bo'ldi. Oromgohda bosh tarbiyachi Hulkar Sodiqova boshchiligidagi «Kitob – bizning do'stimiz» shiori ostida o'tkazilgan kitobxonlar bellashuvida o'zbek shoir va yozuvchilari ijodidan

– Bolajonlar oromgohda dam olish bilan birga turli to'garaklarda ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishmoqda. Tibbiy xizmat, kutubxona ular xizmatida, – deydi «Yulduzcha» nomli oromgoh rahbari Gulnora Ibragimova.

Gulchehra KARIMOVA

«TA'TIL JUDA MAZZA-DA!»

Bu gapni har kuni samarqandlik tengdoshlaringiz takrorlayverib charchamaydilar. Boisi, ular Samarqand shahridagi 9-umumta'lim maktabi qoshida tashkil etilgan «Yoshlik» kunduzgi dam olish oromgohida vaqtini qanchalik tez o'tib ketayotganini payqamay ham qolishyapti.

Oromgohda har mavsumda 120 nafar o'quvchi dam olishi ko'zda tutilgan. 15 nomdagi to'garak xonalari bolajonlar



bilan gavjum. Ayniqsa, «Mohir qo'llar» to'garagi rahbari Dilorom Hamidovanning qizlarga berayotgan sabog'i, sport to'garagi rahbari Zokir Hamdamovning uyushtirayotgan sport musobaqalari bolalar uchun haqiqatan zavq bag'ishlamogda. Oromgoh rahbari Dilbar Mavlonova, bosh tarbiyachi Yulduz Mamadullayeva, yetakchi Aziza Sharopovalar oromgohda o'tkazilayotgan har bir tadbirga bosh-qosh.

«Yoshlik»da hordiq chiqargan har bir o'quvchi kuch to'plab, yangi o'quv yilida a'lo baholarga o'qishi, shubhasiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Mo'jizaviy manzil taassurotlari

(Davomi. Boshi 1-betda)



– Dam olish maskanida bolajonlar besh mahal sifatli va mazali taomlar bilan siylanadi, – deydi oromgoh rahbari Sunnatillo Abdurahimov. – Oromgohda tarbiyachilar-ular to'garak

rahbarlari, yoshlar yetakchisi, shifokor, hamshira, oshpaz va oshxona ishchilari hamda IIB xodimlari tarbiyalanuvchilarning yozgi ta'til mavsumini sermazmun o'tkazishlari uchun bor kuch-g'ayratlari bilan mehnat qilishmoqda.

Bu yerdagi fayzli muhit – ozoda oshxona, shinam yotoqxonalari, gullarga burkangan maskan hovlisi... oromgoh rahbarining so'zlari naqadar haqiqat ekanligini isbotlaydi. Tog'ning musaffo havosi ufurib turgan mo'jizaviy manzilda hordiq chiqargan bolajonlarimiz yangi o'quv yilini ko'tarinki ruh va quvvat bilan boshlashlari tayin!



YURTINGNI SEV

Ko'zlarida oftob kuladi,
Yuragiga ilhom to'ladi.
Sof niyati yo'ldosh bo'ladi,
Yurtin sevib yashagan odam.

Bosgan izin o'ynaydi shamol,
So'zlaridan tomib turar bol.
Odimida hamrohdir iqbol,
Yurtin sevib yashagan odam.

Ona yerdan undiradi nur,
Yer-osmonga ulashadi dur.
Ko'ksi tog'dek jo'shadi g'urur,
Yurtin sevib yashagan odam.

Istiqlolga jondan parvona,
Avlodlarga mehri durdona.
Xiyonatga bo'lar begona,
Yurtin sevib yashagan odam.

Saxovatning bo'lar oshig'i,
Yaxshilikdir aytgan qo'shig'i.
Yanchib o'tar yovlar to'sig'in,
Yurtin sevib yashagan odam.

Porlar quyosh, osmon charog'i,
O'zbekiston hikmat bulog'i.
Gullatadi chamanin, bog'in,
Yurtin sevib yashagan odam.

Davra borki, unga intizor,
Zavol ko'rmay yashar baxtiyor.
Buyuk ishga qo'yar poydevor,
Yurtin sevib yashagan odam.

QISHLOG'IM

Tog'lardan oshib kelar,
Tiniqqina sof suvlar.
Uni ichib bobolar,
Bizlarni duo qilar.

Qirlarda qo'y-qo'zilar,
Mazza qilib o'ynaymiz.
Tabiat go'zalligin,
Quvonch bilan so'zlaymiz.

Nasiba ABDULLAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 26-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

ULOQCHAM

Sakrab-sakrab uloqcham,
Yaylovda chopar bardam.
Tolmasin deb oyoqchang,
Ko'tarib oldim birdan.

O't beraman o'rgatib,
Izimdand yur ergashib.
Quvlab-quvlab o'ynashib,
Qolgin men-la do'stlashib.

Aziza SHARIPOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi
tumanidagi 56-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

Temur UBAYDULLO



HAYOT QONUNI

Otam tongda qilardi duo:
«O'g'lim sira ko'rmasin kulfat.
Yaxshi kunin ko'proq et, Xudo,
Yaxshilarga aylagin ulfat».

Onam tongda qilardi duo:
«Quloq tutgin Tangri nolamga,
Nasibasi mo'l bo'lsin, illo,
Uzoq umr bergin bolamga».

O'zimga deb so'ramay otam,
Bolalarim, deya yumdi ko'z.
Uzoq yashay demadi onam,
Bolalarga atab shirin so'z.

Men ham bugun har safar chog'i,
Niyatimni tongga ulayman:
«Rizq-u ro'zi but bo'lsin toki,
Nevaramga umr tilayman».

Shunday ekan, hayot qonuni,
Biror inson buzmagani uni!

Bizning Shovotda hozir duv-duv
gap: «Sirkchining raqsga tusha-
digan «Gerkules» laqabli kuchugi
Beshmangan qishlog'ida yashovchi
Javohir Azizovning kepkasini topib,
uyiga eltib beribdi!»

Bu gapga birovlar ishondi, yana
birovlar esa bu to'qima gap, deya
bosh chayqaydilar. Xullasi kalom,
bu voqea haqida hozir gapirmagan
odamning o'zi yo'q, hisobi.

...Ertalabki nonushta mahali edi.
Tangribergan otaning tashqi eshigi
taqillab, allanarsaning zaif ovozi
eshitilganday bo'ldi. Bunga hech

SIRKCHINING KUCHUGI

(Hikoya)



kim e'tibor qilmadi. Saldan keyin
eshik yanada qattiqroq taqillab,
kuchuk ovozi eshitildi. Tangribergan
bobo kampiriga yuzlanib:

— Chiqib qara-chi, momo, —
dedi. Kampir eshikni ochishi bi-

lan tashqarida
og'zida qip-qizil
kepka tishlab
turgan qop-qora
kuchukchaga
ko'zi tushib, ich-
kariga tisarildi.
Jonivor tepasi
olti teshikli kep-
kani ostonaga
qo'yib, chuno-
nam raqsga
tushib berdiki, asta qo'yavering.
Avval o'mbaloq oshib raqsga tushdi,
keyin oyoqlarida tikka yugurgilab
yurdi, uy oldida sakrab
o'ynadi. Keyin yana kep-
kani og'ziga tishlagancha
tek qotdi.

— Bu Javohir og'amning
kepkasi, — dedi o'n ikki
yashar Mashhurbek. — U
kecha kechqurun sirk tomo-
shasiga ketgan edi. Og'am erta
tong bilan uyiga ketdi. Hozir u
Shovotyop bo'yida mollarini boqib
yurgan bo'lsa kerak.

— Bor, kuchukka non ber,
— buyurdi Tangribergan bobo
nevarasiga.

Kuchuk nonni hidlamadi
ham, tim qora ko'zlarini
pirpiratgancha ichkariga
tikilib bosh chayqadi,
xolos.

Bobo yana kampiriga
yuzlandi: — Sovitgichdan
bir tishlam go'sht chiqarib
ber-chi.

Kuchuk kepkani ostonaga
qo'yib, go'shtni mahkam tishla-
gancha yana ajib raqslar ko'rsa-
tib, keyin kelgan tomonga qarab
o'qday uchdi.

Kepkasi topilgan Javohir sirkchi
usta va uning raqschi kuchugidan
ming bor minnatdor bo'ldi...

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Yakshanba kuni edi, sartarosh-
xonadan kelayotsam, mahallamiz
bolalari to'planib olib, kim bilandir
da'volashib turishibdi. Ba'zilarining
qo'lida tosh, ba'zilarida uzun so'yil. Ha,
astoydil. Bolalar jang holatida. Meni
ajablantirgani, ular orasida sen ham
bor eding. Hammalaring uch birdek
kap-katta odamlarni o'rab turardila-
ring. Nariroqda kranli mashina ham
ko'rindi. Katta yoshdagilar ham
qurollangan, birini qo'lida bolta,
ikkinchisining qo'lida parrakli arra.

Ma'lum bo'lishicha, katta yoshli
odamlar kran bilan ko'cha chetidagi
qadimgi tikanli bir daraxtni kesgani
kelishgan ekan. Juda yaxshi bo'lti-
da, dedim ichimda. Chunki bu daraxt
menga ham yqmas edi. Yozda
barg chiqarib, turqini sal yashirgan
bo'lardi-yu, ammo kech kuz, qish
bo'yi uzun bir to'nkaga o'xshab juda
xunuk ko'rinar. Hosili to'kilmas,
sal shamolga shaqir-shuqur ovoz
chiqarib, tunda o'tganni o'takasini
yorardi. Men bu daraxtni qadimdan
yashab kelishini uning tikanlari sa-
bab deb bilardim. Har tikanki, naq
bir qarich-bir qarich keladi, butun

tanasini qoplagan. Bu daraxt nimaga
ham yarardi, kim ham kesardi?!
Daraxt ustidan mahallamizdagi bir
otaxon hokimiyatga yozibdi. Daraxt
gullaganda, allergiyasi qo'zir ekan.

Ammo siz bolalar bu tikanli daraxt-
ning kesilishiga qarshi edinglar.
Sizlarning da'voyingizni eshitib,
hayron qoldim. Mahallada olmaxonlar
ko'paygan edi. Ular shu daraxtning
kavaklariga in qo'yishgan ekan.

TIKANLI DARAXT

Daraxtning tikani ularni mushuk-
lardan, yirtqich qushlardan, ilonlardan
saqlar ekan. Keyin bizda ekilgan
archalarning hosili puch bo'lar ekan.
Olmaxonlar qishdan shu daraxtning
hosilini yeb chiqarkan. Olmaxonlar
yesin, deb tikanli daraxt ataylab
hosilini to'kmas ekan. Hosilida asal
moddasi bor ekan. Agarda u kesilib
ketsa, olmaxonlar kechalari qayerda
jon saqlaydi-yu, qishda nima yeydi?!
Bu gaplarni eshitib, daraxt kesgani
kelganlar ham ikkilanib qolishdi.

Men darhol daraxt ustidan arz
qilgan mahalladoshimizni chaqirtirib
keldim. U bu daraxtda shunday chi-
royli, beozor olmaxonlar yashashiga

Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist



ishonmadi.

Hozir sinab ko'ramiz, deb qo'lida
arrasi bor kishi uni o't oldirdi-da,
daraxtga tekkiydi. Shirillagan kuchli
ovoz chiqdi-yu, daraxtning tanasi
zirillab ketdi. Shu payt olmaxonlar
qochib chiqib, boshqa daraxtlarga
o'tib ketdi.

Siz bolalar gapingiz rost chiqib,
chuvillab, chapak chalib yubordinglar.
Arz qilgan odam shu yerning o'zida:
«Arizamni qaytib oldim, tikanli daraxt
kesilmasin», deb yozib berdi. Daraxt
kesuvchilar esa siz bolalarga tan
berib, har biringiz bilan qo'l olishib
xayrlashdilar.

(Davomi bor)

OSIYO CHEMPIONATIDAN MUVAFFAQIYAT ILA QAYTISHDI

Shri-Lankaning Kalutra shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida shaxmat bo'yicha Osiyo chempionati nihoyasiga yetdi.

7-15-iyul kunlari bo'lib o'tgan musobaqada shaxmatchilar standart, rapid va blits yo'nalishlari bo'yicha bellashishdi. Unda qit'amizning 15 mamlakatidan tezkor shaxmat yo'nalishida 422 nafar, blits yo'nalishida 443 nafar, standart yo'nalishida 454 nafar yosh aql idrok sohiblari ishtirok etdi.

Musobaqada muvaffaqiyatli ishtirok etgan Umida Omonovaning hissasi katta bo'ldi. U standart, tezkor shaxmat va blits yo'nalishlari bo'yicha osiyolik tengdoshlariga hech qanday imkoniyat qoldirmadi hamda 3 ta oltin medal egasiga aylandi.

Shuningdek, Humoyun Begmurov

(2 ta oltin, 1 ta kumush), Afro'za Hamdamova (2 ta oltin, 1 ta kumush), Davlat Mahmudjonov (2 ta oltin, 1 ta bronza), Ruqiya Oli-

mos Rahmatullayev (1 tadan oltin) kabi shaxmatchilar terma jamoamiz uchun muhim bo'lgan medallarni qo'lga kiritishga sazovor bo'lishdi.

16-iyul tonggida Osiyo chempionatida muvaffaqiyatli ishtirok etgan shaxmatchilarimizni O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi prezidenti Umid Ahmadjonov, Jismoniy tarbiya va sport vaziri Shoakrom Isroilov, MOQ bosh kotibi Jasur Matchanov va boshqalar kutib olishdi.

Nurbek QIDIRALIYEV



mova (2 ta oltin), Sitora Saporova, Ali Qosimov, Abdumalik Abdusalomov, Zilola Aktamova, Muhammadali Abdurahmonov, Ol-

SHAXMAT – SHOHLAR O'YINI

Shaxmat Vatani Hindiston ekani ko'pchilikka ma'lum. Markaziy Osiyoda bu o'yin «shatranj» nomi bilan IV-V asrlarda paydo bo'lgan.



Arab istilochilari «shatranj» o'yini bilan VII asrda tanishadilar va uni «shatranj» deb talaffuz qiladilar. Shaxmat aqliy sport turi bo'lib, unda iste'dodlir, uzoqni ko'ra oladigan, jur'atli tomon g'alabaga erishadi. O'yinning ana shu jihatlarini hukmronlik xudratini oshirishni xohlagan podshohlarni o'ziga jalb etgan. Boburning «Boburnoma», A. Oripovning

«Sohibqiron», A. Fitratning «Abulfayzxon» asarlarida bu o'yin kuchli hukmronlik va janglarda g'olib bo'lishga ruhlantiruvchi kuch sifatida tasvirlangan.

Bobomiz Amir Temur ham kuchli shatranjchilarni Samarqandda to'plagan. Mohir o'yinchi Olovuddin at-Tabriziy bilan hatto harbiy yurishlar, janglar oralig'ida jarayonni aniq idrok etish, qiyin holatda to'g'ri qaror qabul qilish maqsadida «shatranj» o'ynagan. Sohobqiron «Temur shaxmati» taxtasini yaratgan. U bir xil rangda bo'lib, 10 qator, 11 ustun va 112 katakdan iborat (zamonaviy shaxmat esa 64 katak 8 ustun va qatorga bo'lingan).

Ma'lumotlarga ko'ra, bobomiz o'zi yaratgan taxtada dona surib, raqib «shoh»ini ruh bilan mot qiladi. Xuddi shu vaqt choparlar o'g'il farzand ko'rgani va Sayhun bo'yidagi shahar qurib bitkazilgani haqidagi xabarni yetkazgach, o'g'luga Shohruh, shaharga Shohruhiya deb nom beradi.

Shaxmat bo'yicha jahonning XVII chempioni Rustam Qosimjonovga 2004-yil «Amir Temur» ordenining berilishi ham bejiz emas, albatta. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov taklifi bilan yozgan «Shaxmat – sehirli olam» kitobi esa shaxmatga ishqiboz bolalar uchun muhim qo'llanmadir.

Yulduzxon ABDUSAMADOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob shahridagi
2-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi



MOHIR SUZUVCHILAR BELLASHDI

Mirobod tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabida joriy yilning 18-iyulida «Yoz – o'tmoqda soz!» shiori ostida 2005-2007-yillarda tug'ilgan yoshlar va qizlar o'rtasida suzish bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

Sport maktabiga qarashli ochiq suzish havzasida bo'lib o'tgan mazkur musobaqada «Chinor», «Yuksalish», «Yangi Qo'yliq» hamda «Ziyonur» mahallalaridan 48 nafar o'g'il va qiz bolalar ishtirok etishdi. O'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarda Murod Rahmatov 1-o'rin sohibi bo'ldi. Husan Zayniddinov va Ilhom Ibragimovlar 2- va 3-o'rinlarni egallashdi.

Qiz bolalar o'rtasida 1-o'rin Anastasiya Demakovaga nasib etdi. Alina Haqqulova 2-o'rin, Madina Maviyanova esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi. G'oliblarga diplom va esdalik sovg'alari berildi.

Shukrulla G'ULOMOV

SPORT MAKTABI FUTBOLCHILARI G'OLIB

Joriy yilning 18-iyulida Yangiyo'l shahar bolalar va o'smirlar sport maktabi tashabbusi bilan 10-11 yoshli bolalar o'rtasida ochiq futbol musobaqasi tashkillashtirildi.



O'quvchilarning yozgi ta'til mavsumini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash maqsadida uyushtirilgan mazkur musobaqada Yangiyo'l tumani va shahrining 8 jamoasi o'zaro bellashdi.

Bellashuv yakuniga ko'ra, mezbon sportchilar – shahar sport maktabi futbol jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Xalqobod mahallasi jamoasi 2- niyozboshliklar 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Bugungi kunda ushbu sport maktabida futbolga ixtisoslashtirilgan 4 guruh mavjud bo'lib, yosh futbolchilar mahoratli murabbiylardan saboq olishayotganligi yana bir bor isbotini topdi.

Shohruh MUSAYEV

«O'ZBEKISTON BO'YLAB SAYOHAT»

1 Respublikamizda ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan qancha tarixiy obidalar saqlanib qolgan?

2 Respublikamizdagi nechta shahar Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan?

3 Toshkent shahri (2007-y) qaysi tashkilot tomonidan Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingan?

4 Tabiatning noyob yodgorliklaridan bo'lgan Sangardak sharsharasi yurtimizdagi qaysi viloyatda joylashgan?

5 Xiva shahridagi eng baland minora?

VIKTORINASI



Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-umumta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi

6 Yurtimizdagi qaysi shahar «Boqiy shahar» nomini olgan?

7 Shayx Xovandi To'hir va Tole Biy (Qaldirg'och Biy) ziyoratgohi qayerda joylashgan?

8 Registon ansambli tarkibiga qaysi madrasalar kiradi?

9 YUNESKO tashkiloti tomonidan muhofazaga olingan noyob Sarmishsoy qoyatosh suratlarini yurtimizdagi qaysi viloyatda joylashgan?

10 O'zbekiston tarixiy obidalarini soni bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinda turadi?

Asliddin BOLIQULOV,

Asliddin BOLIQULOV,

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«GEOGRAFIK» KROSSVORD

Yoy bo'yicha o'ngga: 1. Farg'ona vodiysidagi daryo. 2. Shimoliy Kavkazdagi daryo. 3. Karpat tog'laridagi eng baland tog' massivi. 4. AQSHning O'rta G'arbidagi shtat. 5. Buyuk Britaniyadagi eng katta daryo. 6. Rossiya Federatsiyasidagi viloyat. 7. Dunyo tomoni. 8. O'rta dengiz orollar guruhi. 9. Fransuz okeanografi, sayyoh, kitoblar va filmlar muallifi. 10. Bangladesh poytaxti. 11. Qirg'izistondagi daryoga nomdosh shahar. 12. Dunyoda aholisi eng ko'p davlat poytaxti.

Yoy bo'yicha chapga: 1. Orol dengizi yaqinidagi poytaxt. 2. Italiyaning Po daryosi bo'yidagi shahar. 3. Markaziy Osiyodagi pasttekislik. 4. Qrimdagi bolalar oromgohi. 5. G'arbiy yarim sharning Kaliforniya shtatidagi shahar. 6. AQSHning Florida shtatidagi port va iqlim kurorti shahri. 7. Hindistondagi daryo. 8. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidagi Respublika poytaxti. 9. Tojikiston janubidagi shahar. 10. Dnepr irmog'i. 11. Kunchiqar davlat poytaxti. 12. Doim yashil, baland, yelpig'ichsimon bargli janub daraxti.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

23-iyul 2018



TILCHINING LUTFI

Ba'zilar, tosh agar oynaga tegsa, uni sindirib, chil-chil qiladi, deydi. Rost. Lekin bunday qilish nodonlik. Nodonning ishi. Har bir ishni astalik-u ustalik bilan bajarish kerak. O'sha «tosh»ni sekin «oyna» yoniga olib kelinsa, «toshoyna» bo'ladi. Lekin nodon (bu tomonidan o'qisangiz ham) baribir «nodon»da. Uning qo'lga hech vaqt tosh berib qo'yish kerak emas.

TISH VA TIRNOQ

Tish sohibiga hamisha sodiq xizmatda bo'ldi. Yillar o'tib u keksayib, yemirila boshladi. Xuddi sodiq xizmatkorini munosib mukofotlab, zar to'n kiydirgan kabi sohibi tishga tilla qopladi. Endi sohibi xursand bo'lib kulganida, tilla tish ham yaraqlab ketadi.

Tirnoq esa unib-o'sgani hamono o'z bag'riga kir-chirlarni to'pladi. Shu bois, uni har doim qirib tashlashardi.

Shuning uchun, yosh do'stim, hayot qiyinchiligiga tishningni tishingga bosib chida, sabr qil. Xuddi tilla tish kabi e'zozda bo'lasan. Hech qachon birovga tirnoqcha ham yomonlik qilma. Aksincha, tish-tirnoq'ing bilan yaxshilik uchun xizmat qil.

KITOB - OFTOB

«Quyosh nuri kirmagan xonadonga tez-tez tabib kirib turadi», degan gap bor. Bu quyoshning inson salomatligi uchun nechog'li muhim va ahamiyatli ekanini bildiradi.

Kitob – oftob, degan gap ham bor. Kitob kirmagan xonadonga ham jaholat qadam qo'yadi, in quradi. Ma'naviy jihatdan nosog'lom bo'lgan bu muhitga esa keyin tez-tez tashvish va kulfatlar «tashrif» buyuradi.

Dilshod RAJAB,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

8



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SA'DULAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzillimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 28712
Buyurtma – V 2042

Tahririyatga kelgan
barcha qo'lyozmalar tahrir
qilinadi, mualliflarga
qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushan-
ba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08